

TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI INGLIZ TILIDA SOHAVIY MATNLARNI O'QISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH (DAVOLASH ISHI YO'NALISHI MISOLIDA)

Raxmatullaeva Gulbahor Ibrohimjon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat

chet tillari instituti doktoranti e-mail:

gulbahoraxmatullayeva98@gmail.com

[+998944820017](tel:+998944820017)

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyasini ingliz tilidagi sohaviy matnlarni o'qish vositasida rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiya va kasbiy kompetensiya tushunchalarining nazariy asoslari yoritilib, ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi asosida o'qitishning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, sohaviy matnlar bilan ishlash orqali talabalarning kognitiv faolligi, terminologik bilimlari hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida input–processing–output metodik mexanizm ishlab chiqilib, uning samaradorligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, kompetensiya, tibbiy ta'lim, ESP, sohaviy matnlar, o'qish strategiyalari, kognitiv faollik, terminologiya, tanqidiy fikrlash, metodik mexanizm.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE THROUGH READING PROFESSION-ORIENTED TEXTS IN ENGLISH (BASED ON THE GENERAL MEDICINE SPECIALTY)

Annotation: This article examines the development of professional competence of medical students through reading specialized texts in English. The study explores the theoretical foundations of the concepts of competence and professional competence and justifies the importance of the ESP (English for Specific Purposes) approach in language teaching. Furthermore, the role of subject-specific texts in enhancing students' cognitive activity, professional vocabulary, and critical thinking skills is highlighted. As a result of the research, a methodological mechanism based on the input–processing–output was developed and its effectiveness was substantiated.

Keywords: professional competence, competence, medical education, ESP, specialized texts, reading strategies, cognitive activity, terminology, critical thinking, methodological mechanism

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ЧТЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ТЕКСТОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ СПЕЦИАЛЬНОСТИ «ЛЕЧЕБНОЕ ДЕЛО»)

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема развития профессиональной компетенции студентов медицинского направления посредством чтения специализированных текстов на английском языке. В исследовании раскрываются теоретические основы понятий «компетенция» и «профессиональная компетенция», а также обосновывается значимость подхода ESP (English for Specific Purposes) в обучении языку. Кроме того, показана роль профессионально ориентированных текстов в развитии когнитивной активности, терминологической базы и критического мышления студентов. В результате исследования разработан методический механизм на основе модели input–processing–output и доказана его эффективность.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, компетенция, медицинское образование, ESP, специализированные тексты, стратегии чтения, когнитивная активность, терминология, критическое мышление, методический механизм

KIRISH

Hozirgi global bilimlar iqtisodiyoti sharoitida tibbiyot sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro ilmiy axborot maydonining asosiy qismi ingliz tilida shakllanayotgani sababli, tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy faoliyatida ingliz tilini bilish muhim hisoblanadi. Tibbiyot mutaxassislarining kasbiy faoliyati va malakasiga qo'yiladigan talablarni aniqlash masalasi, ayniqsa, so'nggi o'n yil davomida ilmiy tadqiqotlar markazida muhim o'rin egallab kelmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifasi sifatida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek tibbiyot talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblandi.

Zamonaviy tibbiyot nazariyasi va amaliyotida "kompetensiya" tushunchasi umumilmiy kategoriya sifatida keng qo'llanilmoqda[9, 37-51], biroq mazkur atama hanuzgacha ilmiy munozara va bahslar markazida qolmoqda. Turli ilmiy yo'nalishlar va sohalarda kompetensiyaga nisbatan o'ziga xos yondashuvlar shakllanganini kuzatish mumkin[4, 382]. Shuningdek, ushbu terminning ayrim mamlakatlar ilmiy-amaliy tajribasida qo'llanilayotgan talqinlari boshqa davlatlarda ilgari surilgan ta'riflar bilan to'liq mos kelmasligi ham qayd etiladi. Mazkur maqolada avvalo, "kompetensiya" atamasining mazmun-mohiyatini yoritish maqsadga muvofiqdir.

Kompetensiya - bu shaxsning turli, jumladan, noan'anaviy va yangi vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmui hamda uning individual-shaxsiy xususiyatlari yig'indisi sifatida talqin etiladi[2, 105-111].

Professor G. Vayler va J. Lefsted kompetensiyani keng ma'noda talqin qilib, uni maktab hamda maktabdan tashqari ta'lim jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida izohlaydilar[8, 204]. Shu bilan birga, ular kompetensiyaning rivojlanishi ta'limning uzluksiz jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlab, bu jarayon ijtimoiy tajribani o'zlashtirish, shuningdek, intellektual, axloqiy, ijtimoiy va boshqa jihatlarni ham qamrab olishini qayd etadilar.

R.B. Rubin va S. Savignon esa o'z tadqiqotlarida kompetensiyani bilim, tajriba, qadriyatlar hamda motivatsion intilishlar asosida ta'lim jarayonida shakllanadigan umumiy layoqat sifatida ta'riflaydilar[6]. Bunda kompetensiyani oddiy bilim yoki ko'nikma bilan tenglashtirmaslik lozimligi haqidagi lingvodidaktik yondashuv alohida urg'u bilan qayd etiladi.

Shuningdek, mazkur olimlar "kompetensiya" va "malaka" tushunchalarini o'zaro farqlash zarurligiga e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, malaka - bu muayyan vaziyatda namoyon bo'ladigan konkret faoliyat yoki harakatdir, ya'ni kompetensiyaning amaliy ifodasidir. Malakalar bevosita kuzatiladi, kompetensiya esa ana shu kuzatiladigan faoliyat natijalari asosida ajratib olinadigan lingvodidaktik kategoriya sifatida talqin etiladi.

Demak, mualliflar nuqtayi nazariga ko'ra, kompetensiya amaliyotda aynan malakalar orqali namoyon bo'ladi.

Quyida "kasbiy kompetensiya" atamasining mazmun-mohiyatini yoritish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy kompetensiya shaxsning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishiga xizmat qiluvchi, shuningdek, turli o'zgaruvchan sharoitlarda mustaqil ravishda qaror qabul qilish va vazifalarni bajarish imkonini beruvchi kasbiy malakalar hamda individual-shaxsiy sifatlar majmui sifatida talqin etiladi.

Kompetensiyani shakllantirishning ilmiy muammolari bilan lingvodidaktika sohasi vakillari hamda psixologlar tomonidan izchil tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xususan, lingvodidaktika mutaxassislari “kompetensiya” tushunchasidan shaxsning turli xususiyatlarini ifodalashda, shuningdek, uning yaxlit psixologik rivojlanishini tavsiflashda keng foydalanadilar. Shuningdek, kasbiy kompetensiya - bu shaxsning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma, malaka va shaxsiy sifatlar integratsiyasidir. Ayniqsa, “davolash ishi” yoʻnalishida bu kompetensiya klinik fikrlash, diagnoz qoʻyish, axborotni tahlil qilish kabi kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bogʻliq.

Soʻnggi tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, til oʻrganish jarayonida sohaviy matnlar bilan ishlash (content-based learning) talabalarning:

- ✓ kognitiv faolligini oshiradi;
- ✓ kasbiy lugʻat zahirasiini boyitadi;
- ✓ tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Shu bois, mazkur maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyasini ingliz tilidagi tibbiy matnlarni oʻqish orqali rivojlantirish mexanizmi oʻrganildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kasbiy kompetensiya konsepsiyasi ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlarda talqin qilingan.

J. Raven kompetensiyani “muvaqqiyatli faoliyatni taʼminlovchi kompleks qobiliyatlar tizimi” sifatida izohlaydi[5]. Uning taʼkidlashicha, kompetensiya: bilim, qadriyat, motivatsiya, tajriba elementlaridan tashkil topadi deya izohlaydi.

R. Sternberg esa “amaliy intellekt” nazariyasida bilimlarni real hayotda qoʻllash qobiliyatini asosiy omil sifatida koʻrsatadi[7].

ESP nazariyasiga koʻra: til oʻqitish maqsadga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim, oʻquvchilar ehtiyojlari markaziy oʻrin tutadi[3].

Dudley-Evans ESP (English for Specific Purposes)ni oddiygina “maxsus maqsadlar uchun ingliz tili” sifatida emas, balki aniq tuzilgan va ehtiyojga yoʻnaltirilgan til oʻqitish tizimi sifatida talqin qiladi. Uning yondashuvida ESP uchta asosiy komponent orqali tushuntiriladi: kasbiy mazmun, aniq kommunikativ maqsad va autentik materiallar.

1. Kasbiy mazmun (Professional content)

Dudley-Evansga ko'ra ESP darslari umumiy ingliz tilidan farqli ravishda ma'lum bir kasb yoki soha bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan:

- ✓ tibbiyot ingliz tili (Medical English),
- ✓ iqtisodiyot ingliz tili (Business English),
- ✓ muhandislik ingliz tili (Engineering English).

Bu yondashuvda til o'rgatish jarayoni grammatika yoki umumiy lug'at bilan cheklanmaydi, balki o'quvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatida kerak bo'ladigan terminologiya va diskurs bilan boyitiladi. Ya'ni, o'quvchi tilni "umumiy bilim" sifatida emas, balki "kasbiy vosita" sifatida o'rganadi.

2. Aniq kommunikativ maqsad (Specific communicative purpose)

ESPning asosiy g'oyasi - tilni aniq maqsad uchun o'rgatishdir. Har bir dars yoki o'quv materialini ma'lum kommunikativ vazifaga yo'naltiriladi:

- ✓ bemor bilan muloqot qilish,
- ✓ ilmiy maqola yozish,
- ✓ biznes muzokara olib borish,
- ✓ texnik yo'riqnoma tushunish.

Shu sababli ESP kurslarida "tilni bilish" emas, balki "til orqali vazifani bajarish" markaziy o'rinda turadi. O'quvchi real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llashni o'rganadi.

3. Autentik materiallar (Authentic materials)

Dudley-Evans ESPda sun'iy yoki soddalashtirilgan matnlardan ko'ra, real hayotdan olingan materiallardan foydalanishni muhim deb hisoblaydi. Bular:

- ✓ haqiqiy tibbiy hisobotlar,
- ✓ ilmiy maqolalar,
- ✓ biznes hujjatlar,
- ✓ real intervyu va audio/video materiallar.

Bunday materiallar o'quvchini real kommunikativ muhitga yaqinlashtiradi va uni kasbiy til muammolariga tayyorlaydi. Natijada o'quvchi nafaqat tilni tushunadi, balki uni real kontekstda qo'llash ko'nikmasini ham rivojlantiradi.

Dudley-Evansning ESP yondashuvi til o'qitishni kasbiy ehtiyojlarga moslashtiradi. Unda til o'rganish jarayoni:

- ✓ sohaviy mazmun bilan boyitiladi,
- ✓ aniq kommunikativ maqsadga yo'naltiriladi,
- ✓ real hayotga asoslangan autentik materiallar orqali amalga oshiriladi.


Bu yondashuv ESPni umumiy ingliz tilidan ajratib turadigan asosiy ilmiy-metodik asoslardan biri hisoblanadi[1].

Tibbiy ta'limda ingliz tilini o'qitish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: terminologiyani kontekstda o'rganish samaraliroq; o'qish strategiyalari kognitiv rivojlanishga xizmat qiladi. Tadqiqot ishi doirasida muallif tomonidan nazariy model yaratildi. Mazkur model quyida tavsiflanadi.

Nazariy model.


Tadqiqot doirasida "Sohaviy matnlar orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirish modeli" ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan model quyida tavsiflanadi(1.1 – modelga qarang).

"1.1 – model."



Shuningdek, talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun muallif tomonidan metodik mexanizm ishlab chiqildi. Mazkur metodik mexanizm

kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonini izchil va bosqichma-bosqich tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon uch asosiy komponent - **input**, **processing** va **output** bosqichlari orqali amalga oshiriladi (1.2- rasmga qarang).



1.2 – rasm.

Shunday qilib, mazkur metodik mexanizm talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uygʻunlashtirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuv sifatida namoyon boʻladi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyasini ingliz tilida sohaviy matnlarni oʻqish vositasida rivojlantirish jarayoni kompleks yondashuv asosida oʻrganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullar uygʻunligiga tayandi.

Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, kompetensiya, kasbiy kompetensiya hamda ESP (English for Specific Purposes) yondashuvlariga oid ilmiy manbalar oʻrganildi.

Amaliy qismda esa sohaviy matnlar asosida o'qish jarayoni tashkil etilib, ishlab chiqilgan metodik mexanizm - input (sohaviy matnlar), processing (o'qish strategiyalari), output (kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlar) bosqichlari orqali talabalarning bilim va ko'nikmalari rivojlantirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ✓ pedagogik kuzatish;
- ✓ tajriba-sinov ishlari;
- ✓ diagnostik baholash;
- ✓ natijalarni sifat jihatdan tahlil qilish.

Mazkur yondashuv talabalarning kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi sohaviy matnlar bilan ishlash talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xususan, quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- ✓ talabalarning kasbiy terminologiyani tushunish va qo'llash darajasi oshdi;
- ✓ o'qish strategiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalari shakllandi;
- ✓ kognitiv faollik va tanqidiy fikrlash rivojlandi;
- ✓ klinik fikrlash elementlari (tahlil qilish, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish) mustahkamlandi;
- ✓ ingliz tilida kasbiy muloqot olib borish qobiliyati sezilarli darajada yaxshilandi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan metodik mexanizm talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini berib, kompetensiyaga asoslangan ta'lim samaradorligini oshirdi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchiidan, talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ingliz tilidagi sohaviy matnlar muhim didaktik vosita hisoblanadi.

Ikkinchidan, input–processing–output modeli asosida tashkil etilgan o'qish jarayoni talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishda ESP metodologiyasi samarali natijalar beradi.

To'rtinchidan, ishlab chiqilgan metodik mexanizm talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ingliz tilida sohaviy matnlarni o'qish orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida samarali pedagogik yechim sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Dudley-Evans T. Developments in ESP. 1998.
2. Горн А.М. К вопросу о профессиональной направленности в обучении иностранным языкам на специальном факультете / А.М. Горн // ИЯВШ, вып. 1. – М.: ВШ, 2002. – С. 105–111.
3. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes. Cambridge, 1987.
4. Искандарова О.Ю. Теория и практика формирования иноязычной профессиональной коммуникативной компетентности специалиста [Электронный ресурс]: Дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01, 13.00.08. – М.: РГБ, 2003. – 382 с. (Из фондов Российской Государственной библиотеки).
5. Raven J. Competence in Modern Society. London, 2001.
6. Rubin R.B. Assessing speaking and listening competence at the college level: The communication competency assessment instrument. // Communication Education. – 1982. – Vol. 31. – P. 9–18.
7. Sternberg R. Practical Intelligence. Cambridge, 1997.
8. Вайлер Г., Лефстед Я.И. Теоретические и практические аспекты психологии и педагогики: коллективная монография / под ред. И.В. Андудян. – Уфа: Аэтерна, 2014. – 204 с.
9. Витошко М.И., Тараносова Г.Н. Значимость компетентностного подхода в обновлении содержания филологического образования // Теория и методика непрерывного профессионального образования: Сборник трудов V Всероссийской научно-методической конференции. – Т. 2. – Тольятти: ТГУ, 2003. – С. 37–51.